



Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-aprel oyi uchun

- I. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Toshkent shahri sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-may holatiga ko'ra Toshkent shahrida 11 480 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda.

Korxonalar soni
1-may holatiga ko'ra



II. Toshkent shahri sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahri korxonalarini tomonidan 63,7 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib,



2025-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	63 652,8	107,0
<i>viloyatlar:</i>		
Uchtepa tumani	3 283,4	116,3
Bektemir tumani	6 563,8	106,8
Yunusobod tumani	2 476,3	112,4
Mirzo Ulug'bek tumani	3 720,5	105,8
Mirobod tumani	3 929,2	110,1
Shayxontohur tumani	2 948,9	101,1
Olmazor tumani	4 656,9	109,8
Sirg'ali tumani	5 831,2	101,2
Yakkasaroy tumani	2 478,6	102,1
Yashnobod tumani	10 630,7	102,6
Yangihayot tumani	4 866,4	108,3
Chilonzor tumani	6 372,9	113,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir tumanida (91 284,3 ming so'm), Yashnobod tumanida (33 374,8 ming so'm), Sergeli tumanida (32 481,3 ming so'm), Mirobod tumanida (25 073,9 ming so'm) o'rtacha Toshkent shahri darajasi ko'rsatkichidan (19 972,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Uchtepa tumanida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 115,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Chilonzor tumanida (112,7 %) Yunusobod tumanida (110,1 %), Olmozor tumanida (108,2 %), qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi


Yanvar-aprel oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 50,8 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (79,9 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 8,5 trln so'm (13,3 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 3,8 trln so'm (6,0 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 0,5 trln so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-aprel oyida






III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-aprel oyida Toshkent shahrida 3440,7 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (2025-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 16,7 % ga ko'paygan), 9 876,5 tonna paxtadan yigirilgan ip (100,0 % ni tashkil qildi), 107 759,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (23,9 % ga ko'p) hamda 30 637,6 ming litr pivo (93,5 % ni tashkil qilgan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel*	2026-yil yanvar-aprel
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	23,6	20,2	107,8
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	14,2	12,3	9,9
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar — tonna.	6 185,2	6 442,6	6 957,9
Pivo – mln litr	26,5	32,8	30,6
Sovutgich va muzlatgichlar — ming dona	136,9	123,3	84,3
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	1 334,6	955,6	1 031,6
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, tonna	4 947,0	4 086,1	5 245,9

**2024-2025-yillarning yanvar-aprel oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:



[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,6 % (2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,4 % (2025-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,6% ni (2025-yilning yanvar-aprel oylarida 3,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,8 % (20,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,9 % (34,6 %), quyi texnologiyali 46,8 % (42,2 %)ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi



2026-yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 134,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 92,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-aprel *	2025-yil yanvar-aprel *	2026-yil yanvar-aprel
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 288,2	1 212,8	1 658,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	4 460,6	3 888,1	3 597,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 26,5 %g a o'sish kuzatilgan, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 95,7% ni tashkil etdi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 8,4 % ga ko'paydi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel *	2026-yil yanvar-aprel
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	121,4	130,5	124,9
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	80,1	53,3	41,9
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	204,2	188,8	204,7

*2024-2025-yillarning yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 22,1 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 30,7 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Toshkent shahri iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslariga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** — Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** — Ishlab chiqarish sanoati
- D** — Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** — Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

SH.Xaynazarov
71 203-80-03 (3510)

Manzil:

